



Yechimini topmagan muammolar bor

3-betda o'qing



Ustamalar sud orqali undirildi

4-betda o'qing

INSON va qonun

2024-YIL
3-DEKABR
SESHANBA

№ 48
(1460)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

“HUQUQIY MAHALLA” LOYIHASI AMALDA



Adliya vaziri Akbar Toshqulov Qoraqalpog'istonga xizmat safari davomida “Huquqiy mahalla” loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdi. Nukus tumanining “Diy-xan arna” mahallasida tashkil etilgan “Huquqiy mahalla” loyihasi doirasida hududdagi jami 835 ta xonadon qamrab olingan.

Birinci bosqichda muammolar o'rganilgan bo'lsa, keyingi jarayonlarda ularni hal etish, birlamchi huquqiy ko'mak ko'rsatish, metodik yordam berish, manzilli va predmetli targ'ibot tadbirlarini o'tkazish borasida uyushqoqlik bilan amaliy ishlar olib borildi. Natijada 217 ta huquqiy muammo aniqlanib, shundan 63 tasi ijobiy hal etilishiga erishildi va ushbu tadbirlar bugungi kunda davom etmoqda.

Shuningdek, vazir tumandagi 22-sonli umumta'lim maktabi va 7-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida bo'lib, mas'ullar bilan birgalikda u yerda bolalar uchun yaratilgan sharoitlardan tortib, xodimlarning mehnat

muhofazasigacha bo'lgan huquqiy standartlarga amal qilinishi holatini ko'rdi.

Mahallada tashkil qilingan “Huquqiy kitobxona”da vazir tuman hokimi bilan birgalikda “mahalla yettiligi” bilan uchrashib, ularning kundalik faoliyatidagi ish jarayonida kerak bo'ladigan metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash, aholining muammolarini platformaga kiritish va eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini oshirish, ularga qonunchilikdagi yangiliklar va imtiyozlarni tanishtirishda adliya xodimlari bilan hamkorlikda ishlashning dolzarbligini bildirdi.

Shu kunning o'zida adliya xodimlari tomonidan uyma-uy yurgan holda aholining huquqiy muammolari o'rganilib, “Huquqiy mahalla” platformasiga joyida kiritildi va nazoratga olindi.

Adliya vazirligi axborot xizmati

@huquqiyaxborot



Huquqiy axborot
telegram kanaliga
obuna bo'ling!



Huquqiy
axborot
telegram
kanalida
kuzating!

HUQUQIY DAYJEST

BEPUL DAVOLANADI

Prezidentimizning joriy yil 22-noyabrda imzolangan “Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillash-tirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarori asosida tibbiyotning birlamchi bo'g'inida 30–65 yoshdagi ayollarning elektron bazasi (ro'yxati) shakllantiriladi. So'ng-ra skrining natijasida onkologik kasallikka chalingan ayollar bepul davolanadi.

FAOL NURONIYLAR KAMBAG'AL OILALARGA BIRIKTIRILADI

Davlatimiz rahbarining 2024-yil 25-noyabrda “Kambag'allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirishga faol nuroniylarni jalb etish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qaroriga muvofiq, mahallalarda katta hayotiy tajribaga ega bo'lgan obro'-e'tiborli uch nafar faol nuroniy beshta kambag'al oilaga biriktiriladi. Ular faol va sog'lom turmush tarzini targ'ib etadi.

36 KILOGRAMMGACHA YUKNI OLIB YURISH MUMKIN

Joriy yilning 27-noyabr kuni O'zbekiston Respublikasining “Temiryo'l transporti to'g'risida”gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonunda yo'lovchi o'zi bilan birga alohida joy berilmagan holda besh yoshgacha bo'lgan bir bolani, 36 kilogrammdan ortiq bo'lmagan qo'l yukini va nogironligi bo'lgan shaxslar qo'shimcha ravishda shaxsiy foydalanish uchun mo'ljallangan texnik yordamchi (kompensatorli) vositalarni va maxsus harakatlanish vositalarini bepul olib yurish huquqiga egaligi belgilangan.

@huquqiyaxborot

2 JARAYON

INTIZOMIY JAZOSI BOR XODIMGA
BAYRAM UCHUN MUKOFOT
BERSA BO‘LADIMI?

Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko‘lamli sud-huquq islohotlari, xalq bilan muloqotning keng yo‘lga qo‘yilgani ana shu konstitutsiyaviy qoidalar ifodasidir. Ayniqsa, 2023-yil 30-aprelda bo‘lib o‘tgan umumxalq referendum natijasida tizimdagi islohotlarning konstitutsiya darajasida mustahkamlanishi dunyo hamjamiyati e‘tirof etayotgan o‘zgarishdir. Yoki jinoiy jazolarning doimiy ravishda liberallashtirib borilishi dunyo davlatlari siyosati bilan hamohangdir.

Ayni paytda Jinoyat kodeksining faqatgina ikkita moddasida uzoq muddatli yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi mavjud. Negaki, o‘lim jazosi mohiyatan davlat tamo-

YASHASH HUQUQI
INSONNING AJRALMAS
HUQUQIDIR

KONSTITUSIYAMIZNING 13-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida demokratiya umuminsoniy prinsiplarga asoslanadi, ularga ko‘ra, inson, uning hayoti, erkinligi, sha‘ni, qadr-qimmat va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanadi”, 25-moddasida esa “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og‘ir jinoyatdir. O‘zbekiston Respublikasida o‘lim jazosi taqiqlanadi” deb qayd etilgan.

yillariga ham, jazolarning maqsadi va vazifalariga ham to‘g‘ri kelmaydi. O‘zini demokratik davlat, deb hisoblaydigan dunyo mamlakatlari o‘lim jazosidan voz kechish orqali insonparvarlik tamoyillarini ulug‘lab keldi. Bu jinoyatchi o‘ta vahshiy kimsa bo‘lsa ham davlat va jamiyat o‘z fuqarosidan butunlay voz kechmasligini anglatadi. Zero, Jinoyat kodeksining 42-moddasiga muvofiq, jazo mahkumni axloqan tuzatish, uning jinoiy faoliyatni davom ettirishiga to‘sqinlik qilish hamda mahkum, shuningdek, boshqa shaxslar

yangi jinoyat sodir etishining oldini olish maqsadida qo‘llaniladi. O‘lim jazosi tarbiyalash emas, balki bir insonning hayotiga nuqta qo‘yishdir.

Yuridik fanlar doktori, professor M. Rustamboyev sud-huquq islohotlari sharoitida jinoiy jazolarni liberallashtirish haqida shunday yozadi: “Jinoiy jazolarni liberallashtirish borasida salmoqli ishlar olib borildi. Xususan, jinoiy jazolar tizimidan musodara qilish jazosi chiqarib tashlandi, iqtisodiyot sohasidagi jinoyatlar uchun iqtisodiy ta’sir choralarini qo‘llash imkoniyati

yaratib berildi. Sudyalarning jarima tariqasidagi jazoni tayinlash imkoniyatlari oshdi, ozodlikdan mahrum qilish jazosini tayinlashga yo‘l qo‘ymaydigan normalar doirasi kengaytirildi, muhimi o‘lim jazosi bosqichma-bosqich bekor qilinishiga erishildi”.

Respublikamizda amalga oshirilgan sud-huquq islohotlari olimlar tomonidan turlicha davrlarga ajratib o‘rganiladi. F. Taxirovning ta’kidlashicha, jinoyat qonuniga kiritilgan o‘zgartirishlarning aksariyat qismi jazolarni liberallashtirish siyosatining samarasidir. Jinoiy javobgarlikdan ozod qilish institutini takomillashtirish, jinoiy jazolarni yengillashtirish, ozodlikdan mahrum qilishga muqobil jazolarni joriy etish shular jumlasidandir. Qolaversa, O‘zbekiston jinoyat-huquqiy siyosatida inson huquq va erkinliklari, jazoning muqarrarliligi tamoyili ustundir. Umuman olganda, o‘lim jazosini bekor qilish orqali nafaqat aybdor shaxsga, balki butun bir oila yoki sulolaga nisbatan ham jaf o‘tkazilishiga chek qo‘yildi.

Bahrom AXRAROV,
O‘zbekiston Respublikasi
Jamoat xavfsizligi
universiteti professori

QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

XORIJGA ishlash uchun ketmoqchi bo‘lgan fuqarolarni kasb-hunar va chet tillariga o‘qitish tizimini zamon talabiga moslashtirish, shuningdek, mazkur yo‘nalishda xalqaro tan olingan dasturlar va malaka sertifikatlarini joriy qilish maqsadida Agentlik tomonidan xorijga ishga ketmoqchi bo‘lgan fuqarolarni ta’lim tashkilotlarida kasb-hunar va chet tillariga o‘qitish bo‘yicha buyurtmalar joylashtirish tartibi joriy etiladi.

Migrantlar uchun kurslar
tashkil etiladi

Bunda Agentlik buyurtmalari asosida:

- kasbiy ta’lim tashkilotlarida xorijga ishga ketmoqchi bo‘lgan fuqarolar uchun davlat granti asosida alohida qabul parametrlari belgilanadi;
- Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi tomonidan xorijga ishga ketmoqchi bo‘lgan fuqarolarni o‘qitish uchun Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi hisobidan grantlar ajratiladi;
- ta’lim kreditini moliyalashtirish jamg‘armasi hisobidan xalqaro tan olingan ta’lim dasturlari bo‘yicha kasbga o‘qish uchun ta’lim kreditlarini ajratish tartibi joriy qilinadi;
- Agentlikning elektron platformasida kasbiy ta’lim muassasalari va kasbiy ko‘nikmalar markazlarida faoliyat yuritayotgan chet tili fani o‘qituvchilarining reytingi tuziladi.

Bunda ingliz, koreys, nemis va yapon tillari bo‘yicha kamida B1 yoki unga tenglashtirilgan darajadagi xalqaro sertifikat olgan bitiruvchilari soni eng ko‘p bo‘lgan 50 nafar o‘qituvchiga Jamg‘arma hisobidan 50 million so‘mdan subsidiya to‘lanadi.

Bepul foydalanish
mumkin

“Yashil” uy-joy standartlari asosida quriladigan ko‘p qavatli uy-joylarning namunaviy loyihalarini ishlab chiqish, ularni Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining rasmiy veb-saytida joylashtirish hamda ulardan bepul foydalanish imkoniyati yaratiladi.

Toshkent shahrida
eksperiment

2024-yil 1-dekabrda boshlab yolg‘iz yashayotgan hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslarga Toshkent shahrida eksperiment tariqasida tegishli yo‘nalishdagi nodavlat tashkilotlar orqali Ijtimoiy himoya milliy agentligi mablag‘lari hisobidan ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish amaliyoti yo‘lga qo‘yilishi nazarda tutiladi.

Ijaraga beriladi

Barcha temir yo‘l vokzallaridagi maydonlarni optimizatsiya qilish hisobiga bo‘shaydigan hududlarda savdo va xizmat ko‘rsatish nuqtalarini tashkil qilish maqsadida tadbirkorlik subyektlariga auksion orqali ijaraga beriladi.

Reyestr shakllantiriladi

“Mahalla yettiligi” tomonidan kambag‘al oilalarning ijtimoiy sharoiti va kambag‘allikka tushish sabablarini o‘rganish natijasida Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan Kambag‘al oilalar reyestri shakllantiriladi.

Madina HAMDAMOVA,
“Adolat” milliy huquqiy axborot markazi
yetakchi maslahatchisi



GENDER TENGLIK

STRATEGIYASI EKSPERTLAR NIGOHIDA

JAHON iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz, "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti bilan hamkorlikda xalqaro ekspertlar ishtirokida "O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari: joriy holat va istiqboldagi vazifalar" mavzusida xalqaro ilmiy amaliy konferensiya o'tkazildi.

Xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali gender tengligi sohasida xalqaro tashkilotlar va xorijiy davlatlar bilan tajriba almashish va birgalikdagi loyihalarni amalga oshirish maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu masalalar muhokamasiga bag'ishlangan konferensiyada davlat organlari vakillari, xalqaro tashkilotlar, nodavlat notijorat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi.

Oliy Majlis Senati raisining birinchi o'rinbosari, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori Sodiq Safojev konferensiyani kirish so'zi bilan ochdi.

Shundan so'ng O'zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi raisi Zulayxo Mahkamova gender tengligi bo'yicha milliy qonunchiligimizdagi normalar va ularning ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar haqida gapirdi.

Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz direktorining o'rinbosari Dilnoza Muratova, BMT Ayollar dasturining O'zbekistondagi vakili BMTning Aholishunoslik jamg'armasi (UNFPA)ning O'zbekistondagi vakolatxonasi rahbari Nigina Abaszade, "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot institutining direktori, taniqli olim Nodira Egamberdiyeva, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti bosh ilmiy xodimi, yuridik fanlar doktori, professor Lola Saidova va boshqa ma'ruzachilar mamlakatimizda gender tengligini ta'minlash bo'yicha milliy va xorijiy tajribalarni qo'llash, xotin-qizlarning manfaatlarini himoyalash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar haqida o'z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Xalqaro konferensiyada "O'zbekistonda gender tengligini ta'minlashning dolzarb muammolari", "Erta nikoh va huquqiy ta'sir ko'rsatish mexanizmlari", "Qirg'izistonda erta nikohlar: salbiy oqibatlar", "Ayollarining iqtisodiy imkoniyatlarini qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy madaniy va

diniy me'yorlar", "Gender tengligini ta'minlashda Yangi O'zbekiston milliy strategiyasi", "Turk qonunchiligida ayollarga nisbatan zo'ravonlikning oldini olish uchun qabul qilingan o'zgarishlar", "Xotin-qizlarga qarshi qaratilgan zo'ravonlikning oldini olishda Polsha tajribasi", "O'zbekistonda gender tadqiqotlari institutini rivojlantirish zarurati" kabi bir qator mavzularda milliy va xalqaro ekspertlarning ma'ruzalari tinglandi. Shuningdek, uzgender.uz elektron o'quv platformasining taqdimoti ham o'tkazildi.

Xalqaro konferensiya Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Xotin-qizlarni kamsitishning barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiyasi qabul qilinganining 45 yilligini nishonlashga bag'ishlangan tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga bag'ishlandi. Unda ayollar huquqlari va gender tengligini ta'minlashning dolzarb masalalari qizg'in muhokama qilindi. Anjumanda bu borada ilmiy soha vakillari, amaliyotchi va ekspertlar-ning fikrlari o'rganildi.

Ma'ruzachilar ta'kidlaganidek, "Zo'ravonlikka qarshi 16 kunlik faol harakatlar" aksiyasi odamlarning xabardorligini oshirish bilan birga, qat'iy chora-tadbirlarni amalga oshirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Jamiyatda gender stereotiplari keng tarqalgan bo'lib, ularni bartaraf etishda hamkorlikdagi targ'ibot tadbirlarining o'rni muhim ahamiyatga ega. Tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olish borasidagi ishlarni kuchaytirish zarur. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlash sohasida yanada tizimli yondashuv talab etiladi. Ta'lim va targ'ibot ishlarini kuchaytirish orqali gender tengligi mavzusini maktab va oliy o'quv yurtlari dasturlariga kiritish, jamoatchilikni xabardor qilish lozim. Gender stereotiplari va ijtimoiy normalarni o'zgartirish maqsadida ijodiy mahsulotlar va ommaviy axborot vositalari orqali gender tengligini targ'ib qilish muhim ahamiyatga ega.

Konferensiya davomida gender tengligini ta'minlash bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqildi va kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Gulbahor ORTIQXO'JAYEVA,
"Inson va qonun" muxbiri

YECHIMINI TOPMAGAN MUAMMOLAR BOR

SO'NGGI yillarda respublikamizda yer to'laqlonli mulk obyektiga aylandi. U keng ravishda fuqarolik muomalasiga kiritil-yapti. Yer bozori bozor iqtisodiyotining asosiy unsurlaridan sanalib, uning kapitalizatsiyasida muhim rol o'ynaydi.

To'g'ri, O'zbekiston Respublikasining Yer qonunchiligida fuqarolar va yuridik shaxslarga yer maydonlarini sotish ko'zda tutilmagan. Shu bois, bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida yerning emas, balki undan foydalanish huquqining qiymati aniqlanadi. Bunda yer maydonlariga nisbatan umrbod meros mulki, doimiy va shoshilinch foydalanish hamda ijara huquqi turlari inobatga olinadi.

Jahon tajribasiga binoan, ijara munosabatlari shahar yerlaridan foydalanishning eng samarali shakli hisoblanadi. Shu bois, O'zbekistondagi yer bozori rivojlanishining birinchi bosqichida ijara munosabatlari yerni samarador xo'jalik subyektlariga taqsimlash hamda yerdan ehtiyotkorona va ratsional foydalanishning bosh quroliga aylanishi mumkin.

Ijara munosabatlari mulkdorga, avvalo, davlat va munitsipal organlariga yerdan samarali foydalanishni nazorat qilish imkonini beradi. Qolaversa, ijarachiga yerdan foydalanish va ishlab chiqarish natijalariga egalik qilish huquqini taqdim etish orqali yer ijara munosabatlarini rag'batlantirib, tadbirkorlik faoliyatini rivojlantiradi. Yer bozorida kelishuvlar hajmining bashorat qilingan sezilarli o'sishidan kelib chiqib, yerga bo'lgan huquqning qiymatini obyektiv baholash masalasi vujudga keladi.



Bugungi kunda sud-tergov amaliyotida ko'pincha shaxsiy qurilish obyektlari va tijorat ko'chmas mulk bilan to'ldirilayotgan yer maydonlariga bo'lgan huquqlarni baholash masalasi dolzarbdir. Lekin mazkur muammo haligacha o'z yechimini topmagan. Chunki metodik yondashuvlarning birligi mavjud emas. Shuningdek, baholash faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar mavjud usullarni amaliyotda yetarli darajada qo'llashmaydi.

Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 14-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi faoliyatini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, yer maydonlariga bo'lgan egalik huquqlari qiymatini ekspert baholash yangi tadqiqot turi sifatida joriy etilgan. Shu bilan birga, Markazning sud qurilish-texnik ekspertizasi bo'limi tomonidan ekspertlar uchun ishlab chiqilgan uslubiy tavsiya amaliyotga tatbiq etilgan. Natijada O'zbekiston Respublikasining 1999-yil 19-avgustda qabul qilingan "Baholash faoliyati to'g'risida"gi qonuni, Mulkni baholash milliy standartlari va O'zbekiston Respublikasida normativ-bozor usullari asosida yer maydonlariga bo'lgan foydalanish huquqining qiymatini aniqlash bo'yicha ekspertizalar o'tkazilmoqda.

Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2023-yil 21-fevralda tasdiqlangan "Sud ekspertizasi tadqiqotlarini o'tkazish tartibi to'g'risidagi namunaviy Nizom"ning 3-bandiga ko'ra, advokat so'rovi asosida tadqiqotlar iqtisodiy, fuqarolik va ma'muriy ish yuritilayotganda ishni sud muhokamasiga tayyorlash chog'ida yoki sud muhokamasi jarayonida davlat sud-ekspertiza muassasalari hamda nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari tomonidan shartnoma asosida ishonch bildiruvchi shaxs roziligi bilan amalga oshiriladi.

Davlat sud-ekspertiza muassasasi, nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi muassasa (tashkilot)lar tomonidan qonunchilikka muvofiq ruxsat etilgan sud ekspertizasi turlari bo'yicha jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo'yicha shartnoma asosida tadqiqotlar o'tkazilib, mutaxassis fikri berilishi mumkin.

Farida XUDAYBERDIYEVA,
X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi sud qurilish-texnika ekspertizasi bo'limi davlat sud eksperti

4 ADLIYA ODAMLAR ORASIDA

ZARBDOR TAJRIBASI

ADLIYA vaziri Akbar Toshqulov Jizzax viloyatiga xizmat safari davomida “Huquqiy mahalla” loyihasi doirasida amalga oshirilgan ishlar bilan tanishdi.



Zarbdor tumanining “Taraqqiyot” mahallasida tashkil etilgan “Huquqiy mahalla” loyihasi doirasida hudud-dagi jami 728 ta xonadon qamrab olinib, birinchi bosqichda muammolar o’rganilgan bo’lsa, keyingi jaryonlarda ularni hal etish, birlamchi huquqiy ko’mak ko’rsatish, metodik yordam berish, manzilli va predmetli targ’ibot tadbirlarini o’tkazish borasida amaliy ishlar olib borildi.

Jumladan, 2 ming 687 ta huquqiy muammolar aniqlanib, shundan 2 ming 53 tasi ijobiy hal etildi. Xususan, 642 ta xonadonning kadastr hujjatlaridagi kamchiliklarni tegishli tashkilotlar ko’magida hal etish choralari ko’rilmoqda. Ishchi guruh ko’magi bilan 20 nafar fuqaroning nogironligi belgilandi, 7 nafar ayolning aliment pullari undirib berildi, 15 nafar fuqaroning pensiya va nafaqalarni berish borasidagi kamchiliklari bartaraf etildi, 5 nafar fuqaro manfaatida

yuridik fakti belgilash bo’yicha sudlarga da’vo arizalari kiritildi.

Shu bilan birga, meros ishi, daftarlarga kiritish, kommunal, tadbirkorlik, turli imtiyozlarni qo’llash borasida ham qator yordamlar ko’rsatildi.

Qisqa davr mobaynida amalga oshirilgan ishlar yuzasidan yo’nalishtirish bo’yicha taqdimotlar tayyorlandi. Zarbdor tajribasi asosida mazkur loyihani butun respublika bo’ylab amalga oshirish bo’yicha aniq rejalar va chora-tadbirlar ishlab chiqilib, kelgusidagi vazifalar belgilab olindi.

Jizzax viloyat adliya boshqarmasi axborot xizmati



USTAMALAR SUD ORQALI UNDIRILDI

ANDIJON viloyat soliq boshqarmasi axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shu’basi soliq inspektori X. Alimovning AKT shu’basi xodimlariga boshqarma tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda oylik ustama haqlari to’lab berilmaganidan norozi bo’lib yo’llagan murojaati Andijon shahar adliya bo’limi tomonidan o’rganildi.

Aniqlanishicha, Prezidentning 2018-yil 19-fevraldagi “Axborot-texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi farmoni ijrosi bo’yicha Soliq qo’mitasi tomonidan buyruq ishlab chiqilgan, ushbu buyruq bilan soliq xizmati rahbarlariga yuqoridagi farmonning 7-bandida “g” kichik bandiga muvofiq Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari departamenti va uning hududiy tuzilmalari xodimlariga lavozim maoshining 100 foizidan kam bo’lmagan miqdorda har oylik ustama to’lab berilishi ko’rsatib o’tilgan bo’lsa-da, H. Alimovga 52 million 516 ming 780 so’m, J. Rahimovga 42 million 101 ming 761 so’m, X. Xodjayevga 43 million 722 ming 869 so’m, M. Karimovga 16 million 536 ming 954 so’m, P. Jalolovga esa 2 million 709 ming 295 so’m ustama puli to’lab berilmagan.

Mazkur holat yuzasidan shahar adliya bo’limi tomonidan soliq boshqarmasining Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari shu’basi xodimlarining manfaatini ko’zlab, o’z vaqtida to’lanmagan ustamalarni undirib berish yuzasidan fuqarolik ishlari bo’yicha Andijon tumanlararo sudiga da’vo arizasi kiritildi.

Da’vo ariza to’liq qanoatlantirilib, soliq boshqarmasidan yuqorida nomlari zikr etilgan AKT xodimlarining lavozim maoshiga to’lanmay kelingan ustama pullarini undirish haqida hamda soliq boshqarmasi zimmasiga boshqarma tizimidagi axborot-texnologiyalari va kommunikatsiyalari shu’basi xodimlariga mazkur ustamalarning to’lab borilishini ta’minlash yuzasidan buyruq chiqarish majburiyati yuklatilib, hal qiluv qarori qabul qilindi.

Azizbek RAUPOV,
Andijon shahar adliya bo’limi boshlig’i

FUQARO Mohidil Tojiboyevaga mulk huquqi asosida tegishli bo’lgan Mirobod tumanidagi Katta Mirobod 2-tor ko’chasida joylashgan uy Toshkent shahar hokimining 2017-yil 10-fevraldagi qarori bilan jamoat ehtiyojlari uchun olinib, buzib tashlangan. Ammo yetkazilgan zararining kompensatsiya to’lovi to’lab berilmayotganidan norozi bo’lgan fuqaro Mirobod tuman adliya bo’limiga murojaat qilgan.

UY BUZILGAN, zarar-chi?



Aniqlanishicha, Toshkent shahar hokimligining 2019-yil 11-sentabrda-gi qarori bilan Mirobod va Nukus ko’chalari kesishuvi va yonida joylashgan binolarning buzilishi evaziga yetkazilgan zararni o’rnatilgan tartibda qoplab berish sharti bilan pastki qavatlarida savdo va maishiy xizmat ko’rsatish majmuasi joylashgan ko’p qavatli turar-joy qurish maqsadida 6 gektarli yer maydoni “Absolyte Business Trade” MCHJga ajratib berilgan. Ko’rsatilgan manzilda yashovchi fuqarolar va mulkdorlarga yetkazilgan zararni

qoplash bo’yicha kompensatsiya berish masalasi Mirobod tuman hokimligi huzuridagi komissiya tarafidan ko’rib chiqilib, ayrimlariga tovon puli to’lab berilgan. Biroq, uyi buzilgan M. Tojiboyevaga kompensatsiya to’lovlari to’lanmagan. U davlat organlariga bir necha bor murojaat qilsa-da, ijobiy natijaga erisha olmagan.

Adliya bo’limi tomonidan M. Tojiboyevaning manfaatida fuqarolik ishlari bo’yicha Mirobod tumanlararo sudiga kiritilgan da’vo arizasi sudning 2024-yil 30-sentabrdagi qarori bilan qanoatlantirilib, javobgar-Toshkent shahar va Mirobod tuman hokimliklaridan M. Tojiboyeva foydasiga solidar tartibda 768 million 300 ming 238 so’m kompensatsiya undirish belgilandi.

Bunyod SAMIYEV,
Mirobod tuman adliya bo’limi bosh maslahatchisi

“NAVBATSIZ XIZMAT MASKANI”

BUGUNGI kunda respublika-mizda faoliyat olib borayotgan barcha davlat xizmatlari markazlari tomonidan aholiga shaffof, tezkor va qulay tarzda 400 ga yaqin davlat xizmatlari ko’rsatilayotgani barchamizga ma’lum.



Davlat xizmatlari markazlarida fuqarolarga yaratilgan shart-sharoitlar, ko’rish hamda yurish imkoniyati cheklangan fuqarolarga ajratilgan alohida yo’laklar va nogironligi bor shaxslar uchun navbatsiz xizmat ko’rsatuvchi operator mavjudligi alohida e’tiborga loyiq.

Bundan tashqari, Namangan shahar davlat xizmatlari markazining 2-qavatida “Navbatsiz xizmat maskani” tashkil etilgan bo’lib, fuqarolar hamda tadbirkorlik subyektlari uchun markazda navbat kutib, ortiqcha vaqt sarflashning oldini oladi hamda istalgan davlat xizmatidan navbatsiz, tezkor va qulay tarzda foydalanish imkonini beradi.

“Navbatsiz xizmat maskani”da yaratilgan sharoitlar, jumladan chet el investorlari hamda tadbirkorlik subyektlari uchun mavjud bo’lgan

muzokaralar olib borish zonasi, kafe bar, foto zona va davlat xizmatlaridan foydalanish uchun zamonaviy jihozlar bilan jihozlangan xizmat ko’rsatish zonasi barchaga manzur.

Yuqorida ko’rsatib o’tilgan barcha qulayliklar aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun tashkil qilingan bo’lib, davlat xizmatlaridan istalgan vaqtda markazga tashrif buyurgan holda navbatsiz foydalanish imkonini beradi va bu navbatsiz xizmatga bazaviy hisoblash miqdorining 1 baravari miqdorida pullik xizmat tarzida qo’shimcha to’lov undiriladi.

Husan RAHIMJONOV,
Namangan shahar adliya bo’limi davlat xizmatlari markazi yetakchi mutaxassisi

KONSTITUTSIYANING asosiy xususiyatlaridan biri – inson huquqlariga oid qoida va normalarning kengaytirilishidir. Birinchi marta 54-moddada, “Inson huquq va erkinliklarini ta’minlash – davlatning oliy maqsadidir” deb mustahkamlandi. 56-moddada esa inson huquqlari bo’yicha milliy institutlarning maqomi mustahkamlangan. Bundan tashqari, Asosiy qonunda “Davlat inson huquqlari bo’yicha milliy institutlar faoliyatini tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratadi” deb e’lon qilingan.

Konstitutsiyaning ikkinchi bo’limi inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlariga bag’ishlangan. Uning o’zida inson huquqlarini ta’minlashning o’zbek modelini takomillashtiruvchi yoki mohiyatini ochib beruvchi 25 dan ortiq yangi novellalar mavjud.

Masalan, 25-moddada “O’zbekiston Respublikasida o’lim jazosi taqiqlanadi” degan qoida mustahkamlangan. Mazkur norma evolyutsion rivojlanish va bosqichma-bosqich insonparvarlashtirish, jinoyat qonunchiligini liberallashtirish konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy ustuvor yo’nalishlaridan biri ekaniga yaqqol misoldir.

Konstitutsiyaviy islohotning yana bir yangi paradigmasi quyidagi mazmundagi 19-moddaning normasi hisoblanadi: “O’zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume’tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e’tirof etiladi va kafolatlanadi. Inson huquq va erkinliklari har kimga tug’ilganidan boshlab tegishli bo’ladi”.

Bu bilan O’zbekistonning inson huquqlari bo’yicha universal xalqaro



shartnomalarga sodiqligi e’tirof etilib, har birimizning daxlsiz huquqlarimiz mustahkamlangan.

Xususan, Konstitutsiyaning 20-moddasiga ko’ra, insonning davlat organlari bilan o’zaro munosabatlaridagi barcha qarama-qarshiliklar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi, huquqiy ta’sir choralari esa mutanosiblik tamoyiliga asoslanishi va qonuniy maqsadlarga erishish uchun yetarli bo’lishi kerak.

Ushbu qoidalar inson huquqlarining ustuvorligini ta’minlaydi, davlat organlarining inson huquqlariga rioya qilgan holda o’z vazifalarini bajarishda mas’uliyatini oshiradi, insonga nisbatan ortiqcha huquqiy ta’sir choralari qo’llanilishining oldini oladi.

Zamonaviy axborot jamiyati rivojlanishi sharoitida Konstitutsiyaning inson huquqlari bilan bog’liq 31–34-moddalarining yangi qoidalari ham dolzarb hisoblanadi. Ya’ni, Internet jahon axborot tarmog’idan

foydalanish va undan erkin foydalanish huquqi to’g’risida; har kimning davlat organlari, fuqarolarning o’zini o’zi boshqarish organlari va har qanday tashkilotlar tomonidan to’plangan ma’lumotlar bilan tanishish huquqi to’g’risida; ishonchsiz ma’lumotlarni tuzatishni talab qilish, shuningdek noqonuniy yo’l bilan to’plangan yoki huquqiy asosga ega bo’lmagan ma’lumotlarni yo’q qilish huquqi to’g’risida. Bunday qoidalar hozircha kamdan-kam, ya’ni eng zamonaviy konstitutsiyalarda mavjud, xolos.

Konstitutsiyaviy qonun doirasida O’zbekiston Konstitutsiyasi advokaturaga bag’ishlangan alohida bob bilan to’ldirildi. Mazkur bob advokatlik faoliyatining bir qator yangi kafolatlarini nazarda tutadi. Eng muhimi, advokatura instituti chinakam konstitutsiyaviy maqomga ega bo’ldi. Chunonchi, malakali yuridik yordam ko’rsatish bo’yicha advokaturaning

roli yanada mustahkamlandi. Professional advokatlardan malakali yuridik yordam olish kafolatlari kuchaytirildi.

Konstitutsiyada advokat yordamidan o’z xohishiga ko’ra foydalanish, odil sudlovga erishish va yetkazilgan zararni davlat tomonidan qoplash huquqini belgilovchi mutlaqo yangi 29-modda ham mavjud. Bundan tashqari, ushbu modda har kimga qonunda nazarda tutilgan hollarda bepul ko’rsatiladigan malakali yuridik yordam olish huquqi kafolatlanishini nazarda tutadi.

Birgina 2022-yilda O’zbekiston advokatlari tomonidan 192 mingdan ortiq ish bo’yicha yuridik yordam ko’rsatildi, 97 mingga yaqin bepul yuridik maslahatlar berildi. Shuning uchun davlat advokaturaning rivojlanishi va mustahkamlanishidan manfaatdor. Boshqacha aytganda, mustaqil advokatura ham ayrim shaxslarning, ham davlat organlari, amaldorlarning noqonuniy xatti-harakatlarini jilovlaydi. Aynan shu munosabat bilan advokatura mustaqilligiga jamiyat hayotini demokratlashtirishning zaruriy talabi sifatida qaraladi.

Xulosa o’rnida aytganda, yangilangan Konstitutsiya O’zbekistonda inson huquq va manfaatlarini himoya qilish kafolatlarini yangi bosqichga ko’tarishga zamin yaratgan eng muhim huquqiy hujjatdir.

Otabek TOSHEV,
Toshkent davlat yuridik
universiteti o’qituvchisi, yuridik
fanlar bo’yicha falsafa doktori



KELAJAK AVLODLAR OLDIDA JAVOBGARMIZ!

Davlatimiz rahbari tomonidan 2025 yil yur-timizda “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb e’lon qilinishi Bosh qomusimizning 62-moddasida “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo’lishga majburlar” degan konstitutsiyaviy qoida bilan hamohang bo’ldi.

Shu ma’noda aytganda, men sudya sifatida yurtdoshlarimizni ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi huquqbuzarliklardan ogohlantirmoqchiman. Jumladan, Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksning 72-moddasiga muvofiq, suvlarni ifloslantirish yoki bulg’atish, suvto’plagich inshootlarida suvni muhofaza qilish rejimini

buzish, shuningdek, suv obyektlariga oqindi suvlarni oqizishga yo’l qo’yish shartlari to’g’risidagi talablarni buzish fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining uch baravaridan besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa besh baravaridan o’n baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi.

Shuni taassuf bilan ta’kidlash lozimki, so’nggi yillarda daraxtlarni noqonuniy kesish holatlari tez-tez sodir etilyapti. Vaholanki, daraxtlarni, butalarni, boshqa o’simliklarni va nihollarni qonunga xilof ravishda kesish, kundakov qilish, shikastlantirish, yo’q qilish yoki boshqa joyga ko’chirib o’tkazish uchun Ma’muriy javobgarlik to’g’risidagi kodeksning 79-moddasida tegishli javobgarlik qayd etilgan. Ya’ni, bunday huquqbuzarlik fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining yigirma besh baravaridan ellik baravarigacha, mansabdor shaxslar esa ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima bilan jazolanadi.

Xuddi shunday huquqbuzarliklar ma’muriy jazo chorasi qo’llanilganidan keyin bir yil davo-

mida takror sodir etilgan bo’lsa, ma’muriy huquqbuzarliklarni sodir etish quroli bo’lgan ashyoni yoki ma’muriy huquqbuzarlikning bevosita ashyosini musodara qilib, fuqarolarga bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha, mansabdor shaxslarga esa yetmish besh baravaridan yuz baravarigacha miqdorda jarima solishga yoki o’n besh sutkagacha muddatga ma’muriy qamoqqa olishga sabab bo’ladi.

Yuridik shaxslarga tegishli bo’lgan yoki o’zlari-ga biriktirilgan hududlarda daraxtlarni muhofaza qilish va saqlashga doir qonunchilikda belgilangan choralarni ko’rmagan mansabdor shaxslar bazaviy hisoblash miqdorining o’n baravaridan yigirma baravarigacha miqdorda jarima jazosiga tortiladi.

Daraxtlar va butalarning qimmatbaho navlarini kesishga, kundakov qilishga, shikastlantirishga yoki yo’q qilishga olib keladigan loyiha hujjatlarini ishlab chiqish mansabdor shaxslarga bazaviy hisoblash miqdorining ellik baravaridan yetmish besh baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo’ladi.

Xulosa qilib aytganda, atrof tabiiy muhitga zarar yetkazish insoniyatni ayanchli oqibatlariga giriftor qiladi. Ayni paytda buning jabrini tortayapmiz ham. Shunday ekan, hechdan ko’ra kech bo’lsa-da, ona tabiatga bo’lgan munosabatimizni o’zgartirishimiz, aniqrog’i uni sevimiz, asrab-avaylashimiz shart. Eng muhimi, buning uchun kelajak avlodlar oldida javobgarmiz.

Bahromjon BERDIEV,
jinoyat ishlari bo’yicha
Mirzo Ulug’bek tuman sudi sudyasi

6 MOHIYAT

AYBSIZLIK prezumpsiyasi shaxsning huquqiy maqomini belgilovchi muhim konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizm hisoblanadi. Ijtimoiy-huquqiy institut darajasida harakat qiluvchi mazkur prinsip nafaqat jinoyat-protsessual huquq sohasida, balki butun huquqiy tizimda markaziy o'rinni egallaydi.

U ijtimoiy-huquqiy institut sifatida huquqiy davlat nazariyasi doirasida ko'riladi. Uning asosiy mezonlari sifatida inson huquqlarining ustuvorligi, qonun oldida barchaning tengligi, hokimiyatlar bo'linishi prinsipi asosida davlat boshqaruvining mezonlaridan biri ekani sud hokimiyatining mustaqilligi kabi ustuvor prinsiplar e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, aybsizlik prezumpsiyasi ijtimoiy adolat konsepsiyasi, fuqarolik jamiyatining huquqiy nazariya va amaliyotining muhim g'oyasi tarzida mavjud. U shaxsning muhim va ajralmas huquqiy maqomini namoyon etuvchi ijtimoiy-huquqiy fenomen, ijtimoiy xavfsizlikni ta'minlovchi asosiy ijtimoiy-huquqiy prinsipdir.

Aybsizlik prezumpsiyasi instituti o'ziga xos tarixiy yo'lni bosib o'tgan. Uning tarixiy ildizlari qadimgi Rim huquqiga borib taqaladi. "In dubio pro reo" (shubha ayblanuvchi foydasiga talqin qilinadi) prinsipi birinchi marta Rim huquqshunosi Ulpian tomonidan shakllantirilgan edi. O'rta asrlarda bu qoida inkvizitsiyaviy sud ishlarini yuritish shakli ta'sirida susaygan bo'lsa-da, Uyg'onish davrida yangidan dolzarb ahamiyat kasb eta boshladi.

O'zbekiston hududida ham aybsizlik prezumpsiyasi prinsipining tarixiy rivojlanish jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega. O. Eshonov o'zining "Turkiston qozilik sudlari tarixi" asarida qozilik sudlarida aybsizlik prezumpsiyasi elementlari mavjud bo'lganini ta'kidlaydi. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston general-gubernatorligida amal qilgan "xalq sudlari" Nizomida ham ayblanuvchining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan normalar mavjud bo'lgan.

Sobiq ittifoq davrida aybsizlik prezumpsiyasi rasman tan olinmagan. 1978-yilgi

O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida ushbu prinsipning ayrim elementlari aks ettirilgan, xolos.

Mustaqillik yillarida, dastavval, aybsizlik prezumpsiyasi to'laqonli konstitutsiyaviy maqomga ega bo'ldi. U nafaqat protsessual-huquqiy, balki ijtimoiy-huquqiy prinsip darajasiga ko'tarildi. Shu asosda aybsizlik prezumpsiyasi

HUQUQIY DAVLATCHILIKNING MUHIM TAMOYILI



O'zbekiston huquqiy tizimining fundamental prinsipi sifatida nafaqat protsessual kafolat, balki demokratik jamiyat qadriyatiga ham aylandi. Zero, uning samarali amal qilishi huquqiy davlatchilik asoslarini mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish va adolatli sud tizimini shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

Ayniqsa, mazkur prinsipning mamlakatimiz ijtimoiy-huquqiy hayoti va odil sudlov sohasidagi o'rni va ahamiyati 2016-yildan tub burilish yasagan sud-huquq islohotlari natijasida sezilarli ravishda ortdi. Yangi O'zbekistonning strategik maqsadi bo'lgan to'laqonli huquqiy davlatni barpo etishda aybsizlik prezumpsiyasi prinsipi adolatli sud ishlari-ni yuritishning asosiy ustuniga aylandi. Jinoyat-protsessual

kodeksining 23-moddasida mustahkamlangan ushbu prinsip odil sudlovning poydevor toshi hisoblanadi va jinoyat protsessida inson huquqlarini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Xuddi shunday yondashuvda 2021–2023-yillarda O'zbekistonda o'tkazilgan sud-huquq islohotlari doirasida aybsizlik prezumpsiyasi yanada mustahkamlandi. Xususan, Jinoyat-protsessual kodeksiga kiritilgan o'zgartishlar asnosida isbot qilish qoidalari ancha aniq standartlarga ega bo'ldi. Jinoyat-sudlov amaliyotida "oqilona shubha" konsepsiyasi joriy etildi. Dalillarni baholash mezonlari jiddiy ravishda takomillashtirildi.

Endilikda, shaxsni g'ayriqonuniy harakatlar sodir etishga undash va uni sodir etilgan jinoyat uchun ayblash, shaxsni jinoyat ishiga gumon qilinuvchi yoki ayblanuvchi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lganda, uni guvoh tariqasida so'roq qilish man etiladi. Shuningdek, shaxsga uning protsessual huquqlari tushuntirilguniga qadar undan biron-bir yozma yoki og'zaki ko'rsatuvlar olish, ushlangan gumon qilinuvchining yoki ayblanuvchining yaqin qarindoshlarini protsess ishtirokchisi sifatida jalb qilish uchun asoslar mavjud bo'lmagan taqdirda, ularni huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va so'roq qilish, mazmunan ko'rib chiqish uchun sudga yuborilgan jinoyat ishi doirasida protsess ishtirokchilarini surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari tomonidan huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chaqirish va (yoki) so'roq qilish man etiladi.

Shuningdek, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, sudlanuvchining himoya huquqlari kafolatlari ancha kuchaytirildi. Taraflar tortishuvi tamoyilining protsessual mexanizmlari himoya tarafning huquqlarini kengaytirish orqali takomillashtirildi. Mazkur huquqiy institutning samarali amal qilishi nafaqat protsessual kafolatlarning ta'minlanishi, balki jamiyatda demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Faxriddin MUXITDINOV,
Jamoat xavfsizligi universiteti
Jinoiy-huquqiy fanlar kafedrası professori

TADBIRKORGA QO'L KELGAN REYTING

DAVLATIMIZ rahbarining joriy yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga binoan 1-fevraldan e'tiboran ana shunday reyting joriy etilgandi. Binobarin, mazkur tartib mazmun-mohiyatini tadbirkorlarga yetkazish borasida Surxondaryo viloyat soliq boshqarmasi xodimlari tomonidan olib borilayotgan ishlar o'z samarasini bermoqda.



Termiz tumanida faoliyat yuritib kelayotgan qog'ozni qayta ishlash korxonasi-da Xitoy texnologiyasi asosida yiliga 1 ming 500 tonnaga yaqin 15 xil turdagi qog'oz mahsulotlari ishlab chiqariladi. 650 ming AQSH dollari miqdoridagi kredit hamda 1 milliard 500 million so'm tadbirkorning o'z mablag'i hisobidan faoliyati yo'lga qo'yilgan mazkur korxonada 27 nafar fuqaro doimiy ish bilan ta'minlangan.

Korxona mahsulotlariga ichki va tashqi bozorda talab tobora ortib bormoqda. 2024-yilning shu davriga qadar 70 foiz mahsulot Afg'oniston Respublikasiga eksport qilingan bo'lsa, ichki bozorda sotilgan mahsulotlarning umumiy qiymati qariyb 2 milliardni tashkil etdi.

Bundan bir necha oy oldin o'rta toifada bo'lgan "Surxon qog'oz qayta ishlash" mas'uliyati cheklangan jamiyati bugun barqarorlik reytingida eng yuqori toifaga ko'tarilib soliq imtiyozlaridan samarali foydalanmoqda.

– Tadbirkorlarning faoliyatlarini baholovchi barqarorlik reytingi joriy etilgan dastlabki oylarda bizning korxonamiz o'rta "BB" toifasida edi, – deydi "Surxon qog'oz qayta ishlash" MCHJ rahbari Rustam Ne'matullayev. – Bizga biriktirilgan soliq inspektori doimiy tarzda qaysi mezonlar bo'yicha yetarlicha ball olma-


ganimiz, umumiy balni ko'tarish uchun nimalarga e'tibor qaratishimiz kerakligini tushuntirib bordi. Biz "AAA" toifasiga ko'tarilishga harakat qildik va buning ud-dasidan chiqdik. Mana shu davrda soliq majburiyatlari bilan bog'liq bilimlarimiz ham ortdi. Avvallari qo'shilgan qiymat solig'i tufayli yuzaga kelgan salbiy farq summasini 1 oy muddatda, tekshiruvlardan so'ng oladigan bo'lsak, "AAA" toifasiga ko'tarilgandan keyin birgina oktabr oyining o'zida umumiy qiymati 534 million so'mlik qo'shilgan qiymat solig'idan ortiq-cha to'lovni hech qanday arizalarsiz, tekshiruvlarsiz, salbiy farq summasini hisobotda ko'rsatish orqali 1 kun muddatda qaytarib oldik.

Ma'lumot uchun aytish kerakki, korxonabay tizimi asosida viloyatdagi 9 ming 600 ta korxonaga 48 nafar soliq inspektori biriktirilgan. Ular o'zlariga biriktirilgan tadbirkorlik subyektlariga soliq majburiyatlarini to'g'ri va o'z vaqtida bajarish, mavjud muammolariga yechim topish, shuningdek, barqarorlik reytingidagi darajasini oshirishda ko'maklashib kelmoqda.

Ilyos RAHMATOV,
Surxondaryo viloyati soliq
boshqarmasi mas'ul xodimi



QISQARTIRILGAN ISH REJIMI QANCHA VAQT DAVOM ETADI?



KONSTITUTSIYADA INSON HUQUQLARIGA OID XALQARO NORMALAR

Insoniyat tarixi shundan dalolat beradiki, inson huquqlari, erkinliklari va manfaatlar, shuningdek, ularni himoya qilish hamda ta'minlash bilan bog'liq voqealar, hodisalar silsilasi uzoq vaqtlarga borib taqaladi.

Dunyo miqyosida qabul qilingan inson huquqlariga oid qonun hujjatlari zamon va makon kesimida qaralsa, ushbu davr shartli ravishda uch bosqichga ajratiladi. Ya'ni, 1789-yildagi Inson va fuqaro huquqlari to'g'risidagi fransuz Deklaratsiyasidan boshlanib, XX asrning ikkinchi yarmiga mansub bo'lgan Inson huquqlari Umumjahon deklaratsiyasidan to shu bugungi kungacha bo'lgan qonun hujjatlari qabul qilingan salkam 250-yilni qamrab olganligini ko'rish mumkin.

Tarixiylik nuqtayi nazaridan yondashilganda, inson huquqlariga oid birinchi bosqich qonunlarining mazmun-mohiyatida – shaxs erkinligi va fuqarolar tengligi, shaxs daxlsizligi, xususi mulk, saylov huquqlariga oid masalalar o'rin egallaganligiga guvoh bo'lamiz. Ikkinchi bosqichda esa insonning mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, ijtimoiy yordam olish huquqi kabi huquqlari asosiy o'rinni egallaydi.

Uchinchi bosqich – inson huquqlari himoyasiga oid qonunlar yoxud inson huquqlari qonunchiligining “yangi avlodlari” davridir. Ushbu bosqichning o'ziga xosligini qabul qilingan yoki qabul qilinayotgan qonun hujjatlari markazida insonning tinch yashash huquqi, sof va toza atrof-muhitga ega bo'lish huquqi, axborot olish huquqiga katta e'tibor qaratilganligi bilan izohlash mumkin.

2025-yilning “Atrof-muhitni asrash va “yashil” iqtisodiyot yili” deb nomlanishi ham har jihatdan inson huquqlarining markaziy masalalaridan bo'lgan tinch-totuv yashash, sof va toza atrof-muhitga ega bo'lish, axborot olish huquqlariga hamohangdir.

Yangilangan Konstitutsiyamizda xalqaro andozalarga mos va xos bo'lgan inson huquqlarining barchasi o'z ifodasini topgan. Konstitutsiyaning “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlangan II bo'limi 7 ta bobdan iborat. E'tiborli jihati, inson huquqlari va burchlari, ya'ni, “Umumiy qoidalar”, “Fuqarolik”, “Shaxsiy huquq va erkinliklar”, “Siyosiy huquqlar”, “Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar”, “Inson hamda fuqaroning huquq va erkinliklari kafolatlari” va “Fuqarolarning burchlari” ushbu bo'limda jamlangan. Buni “huquq” va “burch” kategoriyalarining o'zaro mantiqiy bog'liqlikdagi uyg'unligi, har ikkalasi ham hayotda bir-birini taqozo

etishi va to'ldirib turishi bilan izohlash mumkin. Masalan, fuqarolar Konstitutsiyada belgilangan o'z huquqlarini amalga oshirib, burchlarini bajarar ekan, ayni paytda, boshqa shaxslarning ham huquqlarini ro'yobga chiqarishiga yoki burchlarini ado etishiga to'sqinlik qilmasligi shart bo'lib, qonunga zid xatti-harakatlarni qilishlari taqiqlanadi. Davlat insonlar va fuqarolarning barcha huquq hamda erkinliklarini qonunda belgilaydi, ularning ijrosini kafolatlaydi.

2020-yil 22-iyundagi “Inson huquqlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi, Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi bo'lgan “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi Prezident farmonlari doirasida belgilangan maqsad hamda vazifalar mazmun-mohiyatiga ko'ra, inson, fuqarolar manfaati uchun yo'naltirilgan.

Inson huquqlariga oid qonunchilik tizimida yangi avlod qonunlari qatoridan o'rin olgan O'zbekiston Konstitutsiyasida mustahkamlangan inson huquq va erkinliklari hamda kafolatlarini xalqaro hujjatlar kesimida qiyoslash mumkin. Jumladan, Muqaddima va 30 ta moddani o'zida jamlagan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”dagi barcha qoidalar bir chekkadan ko'rib chiqilsa, O'zbekiston Konstitutsiyasining inson huquqlariga taalluqli qoidalari bilan mazmunan o'xshashligiga amin bo'lamiz.

“Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning 3-moddasi, ya'ni “Har bir inson yashash, erkin bo'lish va shaxsiy daxlsizlik huquqlariga egadir” degan qoidasi Konstitutsiyamizning 25-moddasi, ya'ni “Yashash huquqi har bir insonning ajralmas huquqidir va u qonun bilan muhofaza qilinadi. Inson hayotiga suiqasd qilish eng og'ir jinoyatdir” degan qoidasi bilan mazmundoshdir. Xuddi shunday, Deklaratsiya 5-moddasidagi “hech kim qiynoqqa yoki shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni xo'rllovchi muomala va jazoga duchor etilmasligi kerak”ligi to'g'risidagi me'yor Konstitutsiyamizning 26-moddasi ikkinchi qismining “...hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ra-vonlikka, shafqatsiz yoki inson qadr-qimmatini kamситuvchi muomalaga va jazoga duchor etilishi mumkin emas” degan me'yoriga mos keladi.

Deklaratsiyaning 9-moddasidagi “hech kim asossiz qamalishi, ushlanishi yoki quvg'in qilinishi mumkin emas”ligi haqidagi qoida Konstitutsiyamizning 27-moddasida aks etgan. Ko'rinib turibdiki, milliy qonunchiligimizning asosi hisoblangan yangilangan Konstitutsiyamiz “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”ning asosiy g'oya va qoidalarni to'liq ifoda etgan.

Ma'lumki, mamlakatimiz inson huquqlari bo'yicha 80 dan ortiq xalqaro hujjatlarga, jumladan, BMTning 6 ta asosiy shartnomasi va 4 ta fakultativ protokoliga qo'shilgan. Ularning amalga oshirilishi bo'yicha BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashi va shartnomaviy qo'mitalariga muntazam ravishda milliy ma'ruzalar taqdim etib kelinmoqda. Bundan tashqari, milliy qonunchilikni inson huquqlari sohasidagi xalqaro huquqiy standartlar bilan uyg'unlashtirish bo'yicha qator amaliy chora-tadbirlar davom etmoqda.

Konstitutsiyaviy islohotlar bugungi kunda jamiyatimiz hayotida inson qadrini belgilovchi bosh huquqiy mezon hisoblanadi. Konstitutsiyaviy qoidalarga hozirgi reallik va xalqaro huquqiy standartlarni hisobga olgan holda yondashilgan. Shu nuqtayi nazardan, inson huquqlari sohasidagi ta'lim muhim ahamiyatga ega bo'lib, har bir fuqaroning inson huquqlariga nisbatan hurmatini rag'batlantirishga xizmat qiladi. Xususan, 2020–2024-yillarda inson huquqlari sohasida ta'lim berish orqali yoshlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan Inson huquqlari sohasidagi Jahon ta'lim dasturining amalga oshirilayotgan to'rtinchi bosqichi yakunlarini alohida qayd etish mumkin.

Rustam RO'ZIYEV,
Ayubxon MUHAMMADIYEV,
O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi
universiteti professorlari, yu.f.d.

E'LONLAR

O'zbekiston Respublikasi “Notariat to'g'risida”gi qonunining 15²-moddasiga muvofiq Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 22-noyabrda 257-um-son buyrug'iga asosan, Jizzax shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius S. Abduraxmanovga berilgan xususiy notarial faoliyat bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi 1 oy muddatga to'xtatildi.

Advokat Sherbayev A'zamjon Arabjanovich advokatlik litsenziyasining amal qilishini tugatish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etganligi sababli unga 2021-yil 23-noyabrda berilgan L-70663713 raqamli advokatlik faoliyati bilan shug'ullanish huquqini beruvchi litsenziyaning amal qilishi va advokatlik maqomi Andijon viloyat adliya boshqarmasining 2024-yil 22-noyabrda 397-um-son buyrug'iga asosan tugatildi.

8 E'TIROF



HAYOTNING ajoyib haqiqatlari bor: “Insonning umri yashagan yoshi bilan emas, balki amalga oshirgan ishlari, xayrli amallari bilan o’lchanadi”, “Yaxshilikning mukofoti faqat yaxshilikdir”, “Do’stlaring kimligini aytsang, sening kimligingni aytib beraman...”. Bu qadim falsafalarda ibratli umrning formulasi, mazmun-mohiyati bor. Huquqshunos Faxrutdin Qo’ldoshev haqida gap ketganda ana shu haqiqatlar yodga tushadi.

E'TIBOR VA MEHR HAVAS VA RAG'BAT UYG'OTADI



Qahramonimiz bilan bir jamoada ishlash asnosida, u kishini ehtiromga sazovor, katta-yu kichikka izzatli, o'z kasbiga sadoqatli, do'stlarga mehribon, madaniyatli, ma'rifatli va tajribali huquqshunos sifatida kashf etganmiz. Yaqinda 55 yoshni qarshilagan Faxrutdin aqaning bosib o'tgan yo'llarining shukuh, zalvori baland.

Zamondoshimiz Surxon farzandi. Termiz shahrida tavallud topgan. Tojikiston davlat universitetining huquqshunoslik fakultetini, shuningdek, Toshkent davlat iqtisodiyot universitetini tugatgan. Ham huquqshunoslik, ham iqtisodchilik kasbini puxta egallagan qahramonimiz nafaqat el bilguvchi, balki til ham biladigan, tanlagan yo'lidan, sevgan kasbidan xayru baraka, e'zoz topgan, hurmatli, xizmatlari elu yurtida ham, davlatimizda ham qadr topgan insonlardan biri. Adliya tizimidagi ko'p yillik halol mehnatlari martabayu unvonlar, “Adliya a'lochisi” degan sharaflari nishonga loyiq ko'rilgan bo'lsa, davlat mukofoti – “Shuhrat” medali bilan taqdirlangani undan ham faxrlari.

Mehnat faoliyatini Surxondaryo viloyat prokuraturasida bo'lim inspektori vazifasidan boshlagan o'smir yigit bugun qancha-qancha dovonlarni bosib o'tgan, sinovlarda toblangan bilimi charxlangan salohiyatli, huquq olamida o'ziga xos maktab yaratgan insonlar qatorida.

O'ttiz sakkiz yillik mehnat faoliyatining yigirma olti yili adliya tizimida o'tgan Faxrutdin Qo'ldoshev dastlab Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi katta maslahatchisi, yetakchi maslahatchi, bo'lim boshlig'i, adliya boshqarmasi boshlig'i o'rinbosari, adliya boshqarmasi boshlig'i lavozimigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Qator yillar Toshkent viloyat adliya boshqarmasida, keyinchalik Adliya vazirligida qonun hujjatlarini huquqiy ekspertizadan o'tkazish va turkumlash, inson huquqlarini himoya qilish, huquqiy ishlarni nazorat qilish, huquqiy targ'ibot va axborot sohalarida turli mas'uliyatli vazifalarda samarali xizmat qildi. 2020-yildan buyon Adliya vazirligi qoshidagi

“Adolat” milliy huquqiy axborot markazida rasmiy nashrlarni tayyorlash va tahrir qilish bo'limi boshlig'i, ayni paytda esa markazning marketing, reklama va obuna bo'limini boshqarayapti.

Faxrutdin aka oilada ham, jamoada, do'stlar masharatida ham, shogirdlar davrasida ham benazir ustozlik maqomiga ega. Insonning umri yashagan yoshi yoki yillari bilan o'lchanmasligini, bosib o'tgan yo'llarining salobati va shaxs sifatidagi salohiyati bilan o'lchanishini o'z hayoti misolida isbotlagan ikkinchi darajali adliya maslahatchisi haqidagi iliq fikrlarning faqat tadbirlarda, yoki bayram sanalarida emas, balki har doim, har kuni aytilishiga guvohmiz. Bu e'tibor va mehribonlik barchamizga havas hamda rag'bat uyg'otadi, albatta. Maqolamiz avvalida tilga olingan do'stlari va qadrdonlarining kimligini bilish esa har bir insonning ko'zgusi ekani ham oddiy haqiqatligi aniq. Zero, yaxshi so'z ko'ngil ozig'i.

Hamnafas, hamfikrmiz

Shokir SAIDOV,

Yuristlar malakasini oshirish

markazi direktorining birinchi o'rinbosari:

– Faxrutdin Qo'ldoshevni 20 yildan ortiq vaqtdan buyon taniyman. Adliya vazirligi tizimida shartnomaviy-huquqiy ishlarni nazorat qilish boshqarmasi tashkil etilgan yillar edi. O'sha vaqtda men Sirdaryo viloyat adliya boshqarmasida, F. Qo'ldoshev esa Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasida ishlab, yaqindan bir-biri mizni taniganmiz. Adliya organlariga yuklatilgan bu yangi vazifani amalga oshirish uchun ko'p maslahatlarini olganman. Hozirda ham bir-birimizdan maslahatimizni ayamaymiz.

Faxrlansam arziydi

Qorjov CHORIYEV,

Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi

Faxriylar kengashi raisi:

– Faxrutdinni adliya boshqarmasiga ishga kelgan yillaridan beri yaxshi bilaman. U ko'nglida kiri yo'q, samimiy inson. Bir so'z bilan aytganda, barcha yaxshi fazilatlariga ega. Faxrutdin faxrlansam arziydigan eng yaxshi ko'rgan shogirdlarimdan biri. O'z kasbiga sadoqatli, kamtarin, tashkilotchi. Shuning uchun ham qayerda ishlamasin, hurmatga sazovor bo'ldi, o'z o'rnini topdi.

Ha, inson hayotda o'z o'rnini, o'z kasbidan esa sharaftopsa, ustozlari ishonchini oqlasa, shogirdlari oldida yuzi hamisha yorug' bo'lsa, oila qo'rg'onida qaddi va qadri baland bo'lsa chinakam baxt aslida shu! Ana shunday baxt egasi bo'lish hammaga nasib etsin. Umringiz bundan ham ziyoda bo'lsin, Faxrutdin Abdulazizovich! Qutlug' yoshingiz muborak bo'lsin!

Marusa HOSILOVA,

“Inson va qonun” muxbiri

SO'RAGAN EDINGIZ

BOLALARIMNI KO'RISHGA HAQQIM BORMI?



– Bolalarimning onasi bilan qonuniy ajrashganmiz. O'rtamizda 2 nafar farzandimiz bor. Ajrimdan keyin u farzandlarimni menga ko'rsatmay qo'ydi. Ular bilan ko'rishishimga har doim to'sqinlik qiladi. Bunga qonuniy haqqi bormi?

– Oila kodeksining 66-moddasiga muvofiq, bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi. Ota va ona alohida yashagan holda, bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-ona turli davlatlarda yashagan taqdirda ham bola ular bilan ko'rishish huquqiga ega.

Ushbu belgilangan talablar buzilgan hollarda norozi taraflardan biri da'vo ariza bilan sudga murojaat qilishi mumkin.

Oila kodeksida boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning ota-onalik huquqini amalga oshirishi ham mustahkamlangan. 76-moddasiga ko'ra, boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan ko'rishish, uning tarbiyasida ishtirok etish va ta'lim olishi masalasini hal etishda qatnashish huquqiga ega. Ushbu moddaning 2-bandida esa, bola bilan birga yashayotgan ota (ona) bolaning ona (ota)si bilan ko'rishishiga, agar bunday ko'rishish bolaning jismoniy va ruhiy sog'lig'iga, axloqiy kamolotiga zarar keltirmasa, qarshilik qilmasligi kerakligi belgilangan.

Shuningdek, ota-ona boladan alohida yashaydigan ota (ona)ning ota-onalik huquqlarini amalga oshirish tartibi to'g'risida yozma ravishda kelishuv tuzishga haqlidir. Agar ota-ona kelisha olmasa, nizo ota-ona (yoki ulardan biri)ning talabiga binoan sud tomonidan vasiylik va homiylik organi ishtirokida hal qilinadi. Sudning hal qiluv qarori bajarilmaganda, aybdor ota-onaga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan choralar qo'llaniladi. Sudning hal qiluv qarori qasddan bajarilmagan taqdirda sud boladan alohida yashayotgan ota (ona)ning talabiga binoan bola manfaatlarini va uning fikrini hisobga olgan holda bolani unga berish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarishi mumkin.

**Savolga Yakkasaroy tuman
2-son FHDY bolimi mudiri
Shaxnoza KAMALOVA javob berdi**

**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

“Adolat” milliy huquqiy axborot
markazi nashri

info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yanvarda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
0081-raqam bilan
ro'yxatga olingan



**Bosh
muhammad**

Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

**Alisher Karimov
Furqat Tojiyev
Akbar Musayev
Xayotjon Klichev
Sherzod Abdullayev
Shoxidaxon Yuldasheva
Yorbeck Iskandarov**

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqiz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Navbatchi
Gulbahor Ortixov jaye
Sahifalovchi-dizayner
Ma'ruf Abdug'aniyev

Nashr indeksi: 137

“Inson va qonun” gazetasi hamda “Huquq va burch” ijtimoiy-huquqiy jurnali birlashgan tahririyati kompyuter bazasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bosma taboq hajmda, ofset usulida “KOLORPAK” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy

Tiraji – 3 752
Buyurtma – 4 224

Topshirish vaqti – 19:00
Topshirildi – 19:00

MANZILIMIZ:

**100060, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.**

**Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65**

Bahosi kelishilgan narxda

1 2 3 4 5